

## “KECHA VA KUNDUZ” ROMANI UMRBOQIYLIGIDA MAVZU VA G'OYANING O'RNI

Usmonova Umida Xaydarali qizi

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi  
II kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *“Kecha va kunduz” romani mavzu va g'oyaning asar umrboqiyiligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *inson xarakteri, hokimiyat, ijtimoiy tengsizlik, gender tengsizlik, oila, ta'lim.*

**Abstract:** *The significance of theme and idea in ensuring the longevity of the novel “Night and Day” is analyzed.*

**Key words:** *human character, power, social inequality, gender inequality, family, education.*

Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani o'zbek adabiyoti durdonalaridan biri bo'lib, bu asar o'zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarining e'tiroflariga sazovor bo'lgan. Roman asr oshgan asarlar sirasiga kiradi. Bu asarni qanday sifatlar yashovchan qildi? Quyida mavzu va g'oyaning asar umrboqiyiligini ta'minlashdagi o'rnini ko'rib chiqamiz.

Romandagi bosh mavzu inson tabiatini oydinlamoqlik. Inson yaralganidan buyon uning tabiatidan chiqib ketmaydigan manfaatparastlik, nafsga erk berib yuborish romanda eng mayda epizodlarga singdirilgan, eng ko'p ishlangan, me'yoriga yetkazilgan. Mana shu me'yoriga yetish asarning eng katta yutug'i bo'lib, asarning qimmatli g'oyasi ham shu mavzu ortidan keladi.

Miryoqub o'zidan ancha pastda hisoblaydigan, xohlasa, bir kunda eski joyiga o'tkazib qo'ya oladigan Akbaraliga qulluq qilishdan or qilmaydi, shuncha yil bir dasturxondan choy ichsa- da, uning pullarini o'zlashtirishni ko'zlaydi, xotinini rad qilmaydi. Miryoqubning noyib to'ra bilan munosabatlari manfaatlar asosiga qurilgan, ammo bundan ko'p foyda topgan. Shunga qaramay, u nafsni jilovlashni istamaydi, noyib to'raning xotinidan ham ishi uchun foyda kelishini o'ylaydi. “Miryoqub kishilar bilan munosabatga kirisharkan, avvalo, undan keladigan foydani – o'z manfaatini ko'zlaydi” [Quronov D., 2022: 129]. Zunnun esa uylanmoqchi, uylanish uchun bu xotinni o'zidan biroz uzoqlashtirishi kerak. U nega uylanish uchun shunchaki ketib qo'ya qolmaydi. Tayyor ish. Rus xotindan pul undirib turishi ham tayin. Hayotida o'zidan boshqasi yo'qligiga amin bo'lsa- da, to'yini o'tkazib berishni aytgan Miryoqubga bu rus ayolni bemalol tortiq qiladi.

Akbarali sodda, ammo ahmoq emas. U mulohazalaridan ma'lumki, u ham rusni yoqlamaydi, ammo u amalidan ayrilib, dushmani deb bilganlari oldida uyalib qolishni

istamaydi. Shuning boisdan hech narsaga aqli yetmaydigan mingboshi bo'lish uning manfaatlariga to'g'ri keladi. U uchun aqlni urintirmay, uxlatib qo'ygan ma'qul.

Razzoq so'fining qizini qamashganida taqsi haqida "Faqat ne chora, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar; "O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'ymas", "U kishini berishga o'rgatish qiyin! U kishi shuncha badavlat bo'lib turib, eshikdan gadoy kirsam, qo'lga qaraydi, nazri yo'qmikin?" [Cho'lpon, 2004: 290]. qabilida yuritgan fikrlariga e'tibor bersak, u shunchaki ko'r murid emas, u pirining qanday ekanligini yaxshi biladi, ammo uning etagidan ishlamay non yeb yurgani, u orqali so'fi bo'lib, jaamoat ichida qandaydir o'ringa ega bo'lgani, oila ichiga yuqoridan kelolgani uchun pirinning asl yuzi haqida o'ylash manfaatlarini bezovta qiladi. Qizining qaro baxti evaziga pul ishlashdan uyalmaydi. Sadri cho'loq kabi. U ham qizining ortidan shaharga ko'chishni orzulaydi. Otalar farzandini o'z manfaatlariga qurbon qiladi.

Ular egasi yomon parazitga o'xshaydi, birovning hisobiga kun ko'rishga harakat qiladi. Razzoq doim eshon va xotinidan foydalanib, tekinxo'r bo'lib yashaydi. Miryoqub mingboshining, mingboshi esa Miryoqub hisobiga kun ko'radi. Asarda o'z kunini ko'radiganlar sanoqli. Qurvonbibi, O'lmas, Xolmat, dehqonlar, lekin ular juda nochor yashaydi.

Eshon necha yillik muridi dardini eshitmoqlikni bejizga "Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus?" qabilida kesmaydi [Cho'lpon, 2004: 291]. Elga doston qilingan qotil uning shogirdiga aloqador ekanligi uning obro'si uchun to'g'ri kelmaydi, yana bu taqsirga pulni qo'ldan chiqarish juda og'ir.

Poshshaxon shaxsiy manfaati – o'ch olish uchun yosh qizni qurbon qiladi. Pullar sharofati bilan Miryoqubga turmushga chiqish maqsadida Zebini o'ldirish qasdigam tushadi. Akbaralini rashk qilish orqasidan Sultonxoniga shunchalik qasdlashgan xotin Miryoqubning rus ayoli bilan ketganiga qattiq kuymaydi. Axir Poshshaxon "Miryoqubday qora chiroy- u ko'zli, tanijoni sog', o'zi bardam, bazmchi, aysh- u ishratni hamma vaqt shirin suhbat bilan boshlaydigan, ozoda va shirin so'zli erkakni qanday" topadi?! [Cho'lpon, 2004: 262]. Xadichaxon alamlarini yo'qotish uchun qizi kabi bir qizni baxtsiz qilayotgani haqida o'ylab o'tirmaydi, unga o'z alamni tarqatish muhim.

Hakimjon Akbarali dargohida tuz totuvchilardan. U ham Zunnun, Miryoqub kabi nafsini qadriyatlardan ustun qo'yadi. Sultonxon Poshsha kabi o'zini chalg'itish uchun gunohga botishdan tap tortmaydi.

Mariya Ostrovanning xo'jayini gapiga qaraganda, u qilayotgan ishini o'z xohishi bilan pul topish maqsadida tanlagan. U xiyonat tufayli xo'jayini qo'l ostiga kelgandir, ammo uni biz tanigan paytda ishratxonada ishlashga hech kim majbur qilmaydi. Hatto xo'jayin tomonidan unga "Oson pul topish olchoqlik bo'lsa, mardikorlik qilishga nafsingiz ko'nadimi?" [Cho'lpon, 2004: 134] savoli beriladi. Afsuski, Mariyaning tez katta pul topish manfaatiga mardikorlik ishi to'g'ri kelmaydi.

Umrinisa Sulxonxon narsa undirish payida unga girdikapalak, jadidlar Abdusamaddan manfaatdor bo'lgani uchun uning ko'pxotinligini boshqalarniki kabi ovoza qilmaydi, Qosim laylak o'zini ko'rsatib olish umidida xabarchilikka chopadi. Umuman, asarda o'smir qizlarning samimiy munosabatlaridan boshqa samimiy munosabatlarni topish mushkul.

Imomlarning biri vaqfni o'zi uchun ishlatsa, biri o'ziga ziyon yetmasligi uchun ochiq-oydin adolatsizlikka unsizgina ko'nadi. Buni qarangi, unda aybni yuvmoqlik uchun imkon tug'iladi, ammo u Razzoqqa bo'lgan voqeani aytish o'rniga tezgina xonaqodan chiqib ketishni tanlaydi.

Xullas, asardagilar shaxsiy manfaati- yu, nafsini tinchitish uchun hech narsadan tap tortmaydi. To'rt zinokor ayol, manfaatparast to'rt din vakili anchagina bo'rttirilgan, biroq shu bo'rtliqlik Markesning kinoyalari kabi kitobxonga kuchli ta'sir etadi. Inson borlig'ini yaxshiroq ko'ra olish uchun oyna bo'ladi. Inson zoti o'z foydasi uchun boshqalarga ozor berar, foydani qadriyati, iymon e'tiqodidan ustun ko'rar ekan o'zi va yaqinlarini baxtsiz qiladi. Nafsigacha cho'kib ketgan insoniyat takrorlanuvchi baxtsizlikni yaratadi. Fojialarini muqarrar qiladi: Akbarali nafsini zaharladi, Razzoq qotil bo'ldi, xotini va qizini yo'qotdi, eshon nomiga nomunosib holda qazo qilmadi, Miryoqub oilasini buzib, farzandlarini yetim qilib, o'g'lini fohisha qo'liga topshirish arafasida, Poshsha vijdon azobi o'rtab, ado qilishi tayin, boylarning masjidida mingboshining xotinlari buzuqligi haqida gapirganiga, qaraganda, Sulxonxon ham, Poshshaxon ham el og'ziga tushib, otalari tomonidan voz kechilish oldida... Ular yashovchi makon Makonda kabi vayron bo'ladi. Vayrongarchilik sababiyati tuzum, din, madaniyat emas, insonga yopishib olgan nafsga bo'sh kelishdir. Nafsga qarshi turilmas ekan, tuzum, tizim, madaniyat, zamon, makon almashadi, baxtsizlik, insonning ichki va tashqi vayronaligi almashmaydi. Cho'lpon jadidlik e'tiqodi- yu, tuzum talabi ortiga qatlagan asosiy fikrdan biri – shu. Va bu muammo Odamdan uning so'nggi avlodigacha bo'lgan bandayi ojizlarni bezovta qilar ekan, bu mavzu umrboqiydir. Muammoning asosiy sababi iymonning zaiflashuvidir.

Romanda millatning ayanch ahvoliga “ota- bobolar, burungilar yo'lidan” chiqmaslik emas, undan uzoqlashib ketish ham sabab ekanligi tasvir etiladi. Noyib to'ra shunday deydi: “Biz ruslar aroq ichishni hammadan yaxshi bilamiz... Senlar ham iste'dodli xalq ekansan, bizdan o'tkaza boshlading” [Cho'lpon, 2004: 147]. Ayni boshi namozga yetmaydigan Akbarali ko'p ichishi bois yaqin orada olamdan o'tishi haqida o'y suriladi. Bu o'zlikdan ayrilishning eng yuzaki tasviri xolos. Millat iymonni paranji, soqolda deb biladi. Ular asl o'zligidan Allohdan uzoqlashgan. Din peshvolarining biri bachchaboz, biri xotinboz, yurt ustiga kun ko'ruvchi, biri o'n so'mlik uchun indamay kofir bilan musulmon nikohini o'qib qo'yuvchi, biri o'ziga bu dunyoda zarar yetishidan qo'rqib, Allohdan o'zgasi oldida ham tizzalari qaltirayveradigan shaxs. Mana shu tasvir iymondan uzoqlashgan eski avlod tasviri edi. Yangi avlod vakili nima qilyapti? Jadidlar ham rivojlanish yo'lini, avvalo, Allohdan uzoqlashganlarni iymonga qaytarish va

ta'limni targ'ib qilish yo'lidami? Sharaffidin tilidan asarning asosiy g'oyalaridan biri beriladi: "Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hisni o'stirib, o'z millatini tanigandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin" [Cho'lpon, 2004: 196]. Millatni asramoq uchun millat bolalari ongini begonaga berib qo'yimoq mumkin emas. Ammo shunday dohiyona fikr sohibi bo'lgan jadidlarga ham Cho'lpon bekam- u ko'st fikr egalari sifatida qaramaydi. Bola taniydigan millat qay holda? Iymonidan uzoqda, shariatini uylanish- u ayollarni paranjiga solish, arabcha yozuvni ko'zga surtib qo'yishdan iborat deb biladigan holdami? [Cho'lpon, 2004: 90]. Iymoni to'liq bo'lmagan, jadidlik bilan endi tanishgan bir insonga gimnaziyani ham tugata olmagan, tuzuk quruq o'qimagan, Arsibashevning buzuqlik targ'ib etilgan kitoblari mutolaasida ulg'aygan rus ayoliga farzandi tarbiyasini topshirishni maslahat qilmoqlik Cho'lponning jadidlar ham shoshma- shosharlikda, tuzuk- quruq o'ylamay harakat olib borayotganiga qilingan ochiq kinoyasi edi. Aks holda, Mariyaning buzuq kitoblar mutolaasi tarixi nima uchun kerak? Ikki xiyonatchining farzandsizligi, rus xiyonatchisining farzandi bor bo'lsa ham, shu bilan ovunmasligi, xiyonat sheriklarini osongina almashtirishi tasviri- chi? Xo'jayinning Mariyaga qilgan va'zi- chi? Mariyaning qarta o'ynashi, fol ochishi, ichishi yoki fohishalik qilgani uchun sira qiynalmagan vijdoni- chi? Uning ichki nutqida fohishalik qilgani uchun uyatni ham, azobni ham topib bo'lmaydi. "Chindan ham Turkiston kelajagi bo'lmish Miryoqub farzandiga fohisha o'z onasidan ortiq tarbiya bera olishi mumkinmi?". [Mirzayeva Z, 2011: 195]. Nahot Cho'lpon shunday ayollarni musulmon bolasiga tarbiya berishini yoqlagan?! Cho'lponning ajdodlari so'filar bo'lib, iymonga mahkam insonlar bo'lgani, otasi halol savdogarlik bilan kun ko'rgani ma'lum. Gen haqiqati bor ekan Cho'lponning iymoni ham mahkam bo'lgani haqiqatdir. Bu gaplardan maqsad shuki, Cho'lpon ba'zi yelkadoshlariga qarshi o'laroq Yevropa madaniyatini millatga olib kirishga mutlaqo qarshi bo'lgan. U iymon asosiga qurilgan, ayollarga hurmat va erkinlik berilgan, ilm- ma'rifatga ega, tadbirkor, iqtisodni yaxshi tushunuvchi yangi milliy qadriyatlaridan uzilmagan jamiyatni qurishni istaydi. Miryoqubning mulohazasida bu yanada oydinlashadi: "Bu yigit namoz- niyozni bilmaydi...Din yo'lidan chiqarish uchun... g'ayridinlar tomonidan tuzilgan tuzoq emasmi?". "Agar jadidlarning asosi puch bo'lsa, "Xalifayi Rum" jadidlarga tarafdor bo'larmidi? Hamma tartib- nizom o'sha tomonda deydi- ku. Yangicha o'qish Rumdan kelgan... kalta kiyim Rumdan chiqqan... Rumcha yoqalar o'sha tomondan kelib rasm bo'lgan..." [Cho'lpon, 2004: 201]. Cho'lpon dunyo adabiyoti, madaniyati bilan yaxshi tanish edi. Rus kishilarining ko'pini yo'ldan chiqargan Yevropa madaniyati ekanligini bilgani, Turkiston jadidlariga datur- ul amal yaratib berayotgan Turkiya, Qrim jadidlariga ham Yevropa madaniyati ta'sir o'tkazayotganini mushohada qila olgani haqiqatga yaqin. U ota- bobo shaklida yashasa- da, iymondan uzilgan ajdod qatori jadidlar harakati ham iymondan uzoqlashish yo'lida ketayotganidan cho'chigan. Buning yaxshi oqibatga olib bormasligini anglagan. Millati ichida yashab turib, iymoni-

yu qadriyatlaridan ayrilgan ko'plab o'zbeklarni, bugungi Rumda yevropaliklar kabi nikoh qurmasdan birga yashash odatga aylanayotganini, muslim qizlarining ichki kiyimlarda reklamalarga tushayotganini e'tiborga olsak, Cho'lponning havotirini anglaymiz. Bu oqibatlariga kommunizmdan avval jadidlik harakati tamal toshi qo'ygan. Cho'lpon shunday deydi: "Ovro'paning mo'dasi va buzuvchi ahvoli sizlarni xonavayron, bewatan, asir-u qul qiladur. Bundan saqlaningiz!", "Ovro'paning maktab, madrasa, ilmfan, san'at, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni ozod, ma'mur, olim qilub, johillikdan, asorat qullikdan qutultiradur". [Cho'lpon, 1914. 05. 6]. Yosh yigit chog'ida shu qadar yetuk fikrlarga ega bo'lgan insonning tajribasi ortgandan so'ng insoniyat o'z o'yicha yangilanish va yaxshilanish uchun bir-biridan ko'r-ko'rona olgani- yu, bu orada sharafli tarixni yoddan chiqargani, iymondan uzoqlashgani, Oddisseylar Blunga, Penelopalar Molliga aylanganini chuqur anglagani romandan anglashiladi. Romanda ramziy she'riyati bilan el og'ziga tushgan Cho'lpon iymondan uzoq jamiyatga aralashish najot emasligiga ishora qiladi. Beshinchi sinf yoshida Finlandiyadagi gimnaziyada o'qigan bola yurt deganda qayerni tushunadi? Maktab yoshiga ham yetmagan Finlandiyada katta bo'layotgan bola- chi? Uning milliy muallimdan dars olishi milliy qadriyatlarini tuyishiga yetarli bo'ladimi? Bu hovliqma tajriba oqibatini Moskva seni aldabdi, rus- tuzem maktabi miyangni aynitibdi mazmunida safdoshlariga dakki berib yurgan inson rus ayoli bilan yashab yurganida muhit ta'sirsiz qolmasligi haqiqatini yaxshi anglagandir. Demak, Cho'lpon ilmni chetdan olmoqlig- u, ammo inson bu jarayonga kirishi uchun buzilmas kuchli iymon va qadriyatga ega bo'lishi darkorligini, farzandni o'zga madaniyat qo'lga topshirmoqlik uni, u bilan millat kelajagini qo'ldan boy bermoqlik ekanligini dinning sharafi nomini olgan jadidning poyma- poy o'g'itlari ortiga yashiradi. Tarixi va qadriyatidan uzilish, o'zlikdan (iymondan) uzoqlashish insoniyatni sharafsiz holga solayotgani bashar muammosiga aylandi.

Ushbu xulosani, Zunnun orqali mustahkamlash mumkin. Cho'lpon Hakimjon va Zunnun qiyosi bilan ham Yevropa ta'sirini bermoqchi bo'ladi. Hakimjon uyatchanroq, balki shu yagona tuzuk sifati uchun unga Hasanov uchratiladi. Zunnun 12-13 yoshlarida noib xizmatiga kirgan va hozir qirqqa yaqinlashgan, ehtimol, shu sababli bemalol hayotida o'zi yagonaligini bilgan ayolni boshqasiga tortiq qilaveradi. Hakimjon ham Miryoqub kabi Saltanatni osongina qabul qiladi, ammo u manfaatparastlikda Zunnun va Miryoqubdan orqada. Zunnun uylanishini noib xotiniga qabul qildirish, undan kelib turadigan foydani kesib qo'ymaslik maqsadida bekasini Miryoqubga ro'para qiladi. Ayolga boshqa ermak topmay, qishloqdagi qizga uylanib, uni ranjitsa, u mingboshi bo'larmidi, yo'qmi? Ayolning Zunnunga "xiyonati"dan keyin Zunnunda uylanish uchun bahona bor, ammo ayolning marhamatidan mahrum bo'lmaydi. Zunnun iymonsizlikda, orsizlikda ustomonlikda Miryoqubdan oldinda. Chunki u yot millat qo'lida o'sgan. Shuningdek, ichkilik muammosi ham yot ta'sir oqibatlarini gapiradi. Noib ichkilikni o'zlashtirishda iste'dodli ekanini bejiz aytmaydi. Zunnunning sevimli likyori bor. Akbarali deyarli aroqxo'r. Yozuvchi uning o'limini bir uchi ichkilikka

taqaydi. U ichib olib besaranjomlanmaganida Zebi shoshib qolmasdi- ku. Shu orqali Cho'lpon rus mustamlakasining ma'naviy- madaniy ta'siri oqibatlarini namoyon qiladi. 12- 13 yoshidan rus ayol qo'lida tarbiya topgan Zunnunga qarash Cho'lponning ta'limni dastlab milliy maktabda boshlash kerakligi, yot millatdan ta'limni olish, tarbiyani olmaslik kerakligi g'oyasining haqli ekanligini mustahkamlaydi.

Ajoyib fikrlar bilan boyitilgan qudrat mavzusi asarni yanada qimmatli qiladi. Boylik va amal qarshisida nochor qoluvchi insonlar... Qizini qutqarib olmoqchi bo'lgan Sadri cho'loq amaldor kuyov bilan o'chakishishdan qo'rqadi, Miryoqubga hamma egilib- bukilishga majbur, oddiy dehqon boy va amaldor tufayli suvsiz o'tiradi. O'zini o'ldirish uchun kelayotganini bilsa ham, Mamaturdi boy bolalariga birinchi hujum qilishdan qo'rqadi, chunki: "Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning o'g'li gapirsin", degan gap bor. Kim kuchlik? Puli bor kuchlik. Podsholik, amaldorlik, yarim podsho – hammasi puli borning og'ziga qaraydi... "Puli borning gapi o'ng, puli yo'qning gapi to'ng" [Cho'lpon, 2004: 258]. Akbarali mulohazasida bu mavzu zamonlar nishoniga uriladi: "Bitta og'zi katta boyga kuchim yetmagandan keyin bu shop-shalopni nega taqdim etdi? A, puli tushkur- ey! Amaldan ham kuchlik ekan- a!" [Cho'lpon, 2004: 251]. O'tmishda bo'lganidek bugun demokratiya "barq urgan" mamlakatlarda ham boylar eng kuchli kuch bo'lib qolmoqda. Qonunlar ularga moslanadi yoki ular Umarali va Yodgorxo'ja pattalig- u pattasiz soliqlarni to'lmagani kabi qonunlarni chetlab o'tishga haqli. Noyib to'ra bu fikrni tasdiqlaydi: "Podsholik hamma vaqt obro'lik odamlarni himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi" [Cho'lpon, 2004: 266]. Shu sababli bu qudratni xalq hayotini yaxshilikka yo'naltirish maqsadida Miryoqubga Sharafiddin Xo'jayevni ro'para qiladi. Ikki boyga Abdisamat amaldorni maqtatadi. Cho'lpon Miryoqub kabi ishbilanmonlarga qarshi emas, zero u shunday deydi: "Yozaylik, qarindoshlar, iqtisoddan! Alar bo'lsa, maktab ham bo'lur, ilm ham bo'lur", – deydi u maqolasida [Cho'lpon, 1914.04. 30]. Pul bilan bog'liq poraxo'rlik mavzusi ham qudratli kishilarga qistirib ketilgan, mingboshi qo'y ortidan ellikboshi bo'ladi, Miryoqub meva- cheva bilan Akbarali pinjiga kiradi, norasmiy so'roqlari bilan Akbaralini so'rovlardan qutqarib qoladi, noyibni siylab ishini bitiradi, eshon eshikdan kelgan gadoning qo'lidagini olib, boyligini orttiradi, mingboshi vazifasini kambag'alning pulini olmaguncha bajarmaydi, boy nohaq bo'laturib, kambag'al qamaladi. Qudrat egalari o'zidan kichikdan oladi, o'zidan kattaga qistiradi. Qudrat va poraxo'rlik orqali abadiy o'zgarmas fikr beriladi: pulga erk berilgan joyda adolat yo'qoladi, qonun ishlamaydi, poraxo'rlik esa xalqni xonavayron qiladi.

Oilaning nozik masalalari bu mavzuni ham umumbashariy holga keltirgan. Ahli ayoliga yaxshilik qilish buyurilgan din so'fisi munosabatlarda oiladan uzoq, ularning qalbini- yu qadrini bilmaydi. Natijada so'fi uydan uzoqlashsa, ona- qiz shod. O'smir qiz otasini o'z jallodi sifatida ko'radi: "Otasi to'g'risida o'ylagan vaqtida o'zini o'limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko'radi" [Cho'lpon, 2004: 41]. Mana umumbashariy oila fojiasi. Bir- biriga begona kabi yashovchi oila qaysi zamonda,



qaysi makonda baxtli yashagan? Ota- onadan kelgan begonalik hissi qaysi farzand ruhiyatini sindirmagan? Oilaviy mehrsiz yashash, farzand hayotiga bog'liq qarorni begonalardek berish, farzandga qaror qabul qilishga imkon bermaslik ota- onani ham, farzandni ham baxtsiz qiladi.

Akbarali va xotinlari orasida ham shu begonalik hissi hukmron. Akbaralining o'zi qatori xotini uning boriga ko'nikib yashaydi. Ularning ruhiy holati yaqin. Ikki ayolda bir xil holat: katta yosh tafovuti, oila ko'rgan yosh ayollarning e'tibordan chetda qolishi va rashk. Asosiy muammo shuki, er o'zi inson ekanini biladi- yu, ayolining insonligini fahm qilmaydi. Ayollarning fojiasi erning e'tiborsizligi oqibatida yuzaga keladi. Xiyonat yo'liga osongina qadam qo'yuvchi bu er- xotinlarda oilaviy samimiy, xayrixoh mehr yo'q, jismoniy yaqinlik va begonalik hissi bor xolos. Mehr va e'tibor yetishmovchiligi oila yaralibdiki, unga putur yetkazadi.

Ijtimoiy tengsizlik mavzusi gender tengsizlikning muammolari bilan muhimlik kasb etadi. Cho'lpon ilk iste'dodli yosh aktrisa Tursunoyning o'limi tufayli Zebi obrazini yaratgan bo'lishi mumkin. Iste'dodli qizlarning ikki tanlov yo'li birdek fojia bilan yakun topadi. Nima uchun? Qizlar mavjud qoidalar bo'yicha yashaganda ham, yashamaganda ham ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli emas ekan, ayanch taqdirga ega bo'laveradi. Ayollar baxt topishlari uchun ularga erk kerak. Poshsha shunday deydi: "Hammamizni ota- onamiz bizdan so'ramay-netmay uzatgan. Bizning ko'z yoshlarimizga kim qaragan, deysiz?" [Cho'lpon, 2004: 48]. Poshshaga erk berilsa, o'zi qatori inson bilan turmush qurardi, zino, qotillik katta ehtimol bilan uning amal daftariga yozlimasdi.

Chalasavod amaldor oddiy muammolarni hal etishga qodir emas, ishbilarmon til bilmaydi, ilmsiz qiz o'zini sud qilishganini ham tushunmaydi, ta'limsiz xalq qora ishchi, borini mahalliy amaldor, boylarga beradi. Borini Moskvaga 9- 10 og'ir vagonlarda jo'natadi, yana shaldirab kelgan 40- 50 vagonni to'ldirishga kirishadi [Karimov. N., 2003: 411]. Ta'limsizlikdan na qonunni, na iqtisodni, na dinni biladi. Mavzu orqali ta'limsiz jamiyat ahvoli xarob ekanligi g'oyasi beriladi. Bu haqiqat hech kimga sir emas. Ming yillar avval, bugun, ertaga – bir xil spektakl. Rollar bir xil: ilmli xalq – boshqaruvchi, ilmsiz xalq – qora ishchi. Shuningdek, asarda Zebi asarda taqdirini o'zgalar tomonidan hal qilinishiga qo'l qovushtirib qarab turishni qoniga singdirib yuborgan o'zbek xalqi timsoli bo'lib keladi.

Demak, romanda inson tabiati, o'zlikdan uzoqlashish, qudrat (poraxo'rlik), oila, ta'lim mavzulari umumbashariy xarakterda taqdim etilgan bo'lib, ushbu mavzular asosida chiqarilgan g'oyalar makon va zamon tanlamaydi. Global xarakterdagi mavzu va g'oya "Kecha va kunduz" umrboqiyiligini ta'minlovchi asosiy sifatlardir. Bu xususiyat romanni jahon e'tirofiga sazovor asarlar qatoriga qo'yadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirzayeva Z. XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi – T.: Fan, 2011. – 260 b.
2. Karimov Naim. Cho'lpon (ma'rifiy roman). – T.: Sharq, 2003. – 464 b.
3. Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon.– T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 162 b.
4. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – T.: Sharq, 2004. – 306 b.
5. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. Sadoyi Farg'ona. – 1914, 30 aprel- 30 may soni.
6. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar. Sadoyi Farg'ona. – 1914. 6- iyun soni.